

NOZIL XO'JANDIYNING ISHQIY MAVZUDA YOZILGAN SHE'RLARINING G'OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATI

Gulobov Abdulvosit Nurulla o'g'li

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek
tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
abdulvositgulobov67@gmail.com. Tel: +998995521394
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20592747>

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr Qo'qon adabiy muhitida ijod qilgan yirik shoirlardan biri – Avaz Muhammad Nozil Xo'jandiyning ishqiy mavzuda yozilgan she'rlari tahlil qilingan. Shoir lirikasida ishq-muhabbatning badiiy talqini, oshiq va ma'shuqa obrazlarining ifodalanishi, tasavvufiy hamda an'anaviy mumtoz she'riyat unsurlarining qo'llanish xususiyatlari yoritilgan. Nozil Xo'jandiy g'azallarida ishqning haqiqiy va majoziy turlari, hijron va visol kechinmalari, badiiy tasvir vositalari yordamida tahlil etilgan. Tahlillar asosida shoirning ishqiy lirikasida mumtoz adabiyot an'alarini davom ettirish bilan birga, o'ziga xos uslub va badiiy qarashlarni namoyon etgani aniqlangan. Maqola Nozil Xo'jandiy ijodining g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini o'rganish va Qo'qon adabiy muhiti she'riyati taraqqiyotidagi o'rnini belgilashga xizmat qiladi.

Annotation. This article analyzes the love-themed poems of Avaz Muhammad Nozil Khojandiy, one of the prominent poets of the nineteenth-century Kokand literary environment. It highlights the artistic interpretation of love in the poet's lyrics, the portrayal of the lover and the beloved, and the use of Sufi and traditional classical poetic elements. The study examines the real and metaphorical forms of love, the experiences of separation and reunion, and the artistic devices employed in Nozil Khojandiy's ghazals. The analysis reveals that while the poet continued the traditions of classical literature in his love lyrics, he also demonstrated his own distinctive style and artistic vision. The article contributes to the study of the ideological and artistic features of Nozil Khojandiy's works and to determining his place in the development of poetry within the Kokand literary milieu.

Аннотация. В данной статье анализируются любовные стихотворения одного из крупных поэтов литературной среды Коканда XIX века — Аваз Мухаммада Нозил Ходжандий. Освещаются особенности художественной интерпретации любви в лирике поэта, раскрытия образов влюблённого и возлюбленной, а также использования суфийских и традиционных элементов классической поэзии. В газелях Нозили Худжанди рассматриваются реальные и метафорические виды любви, переживания разлуки и встречи, а также художественные средства их выражения. Анализ

показывает, что в своей любовной лирике поэт, продолжая традиции классической литературы, одновременно демонстрирует собственный стиль и художественные взгляды. Статья способствует изучению идейно-художественных особенностей творчества Нозилия Худжанди и определению его места в развитии поэзии литературной среды Коканда.


Kalit so'zlar: Nozil Xo'jandiy, Qo'qon adabiy muhiti, ishqiy lirika, g'azal, oshiq, ma'shuqa, hijron, visol, mumtoz she'riyat, badiiy mahorat.

Nozili Xo'jandiy devonidagi she'rlarni ilmiy jihatdan tahlil va tasnif qilishda ularning janr xususiyatlari bilan bir qatorda mavzuiy guruhlariga ajratish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mavzu shoir ijodining g'oyaviy asosini belgilabgina qolmay, uning mumtoz adabiy an'analar bilan bog'liqligini ham ko'rsatadi. Shunday she'rlaridan ishqiy mavzuda yozilgan asarlari bilan tanishsak.

Ishqiy she'rlar. Bu turdagi asarlarda oshiq va ma'shuqa munosabatlari, hijron va visol, yor vasfi kabi mumtoz lirika uchun xos bo'lgan mavzular yetakchi o'rinni egallaydi.

S.Amirqulovning "Таҳавулли жанрҳои адабиёти тоҷик дар нимаи аввали асри XIX" asarida Noziliy Xo'jandiy marsiya janriga yangicha yondashuvni olib kirganligini aytib o'tadi. "Noziliy Xo'jandiy yigirma bir yoshida bevaqt vafot etgan o'z qizi xotirasiga marsiyalar bitgan. Shoir marsiya janrini oshiqona-lirik, firoqiy ruhda yozish usulini qo'llab, undagi qayg'u va iztirobni ishqiy-lirik ohangga aylantiradi. Natijada shoirning lirik qahramoni shodlik va quvonch tuyg'ulari bilan tasvirlanadi. Shu tariqa, marsiya janrining badiiy talqinida yangicha yondashuv yuzaga keladi va bu davr adabiyotida oshiqona lirikaning rivojiga turtki bo'ladi"¹. Bunday mavzudagi asarlar Noziliy ijodida salmoqli o'rin egallaydi.

Shunday asarlaridan shoirning inventar: 505 raqamli devonining 217b sahifasida quyidagi ruboiy keltiriladi:



Qosim meni ko'p alamda qo'ydi ketti,
Yuz pora ko'ngulni g'amda qo'ydi ketti,
Ko'zni yumub ochkuncha kelib qalbimga,
Olmay nafasini damda qo'ydi ketti.

¹ Asl matn tojik tilida: «Нозили Хучандӣ силсилаи марсияхоро ба вафоти бемаҳали духтари бисту яқсолаи худ ва ғайра навиштааст» (matn qisqartirilib berildi). Қаранг: Амиркулов С. *Таҳавулли жанрҳои адабиёти тоҷик дар нимаи аввали асри XIX*. — Душанбе: Нашриёти Деваштич, 2005. — 56-б.



Birinchi misrada o'z yori haqida "Qosim meni ko'p alamda qo'ydi ketti"-deydi, misradan ma'lumki oshiq ma'shuqasidan shikoyat qilyapti, ikkinchi misrada shikoyat yanada kuchayadi "Yuz pora ko'ngulni g'amda qo'ydi ketti"-deydi, keyingi misrada oshiq bu holatga juda tez tushganligini izhor etadi "Ko'zni yumub ochkuncha kelib qalbimga"-deydi, so'nggi misrada esa "Olmay nafasini damda qo'ydi ketti"-deya qalbiga qanday tez kelgan bo'lsa, shunchalik tez firoqqa qo'yib ketganligini, hatto "olmay nafasini"-deydi. Ruboiyda tashbeh va mubolag'a san'atidan o'rinli foydalanilgan.

Shoir devonining yana bir qo'lyozma nusxasi hisoblangan inventar:12080/2raqamli nusxaning 87b-betida "Nozaninlar rasm aylang benavo biz sizlarga" deb boshlanuvchi yetti baytdan iborat oshiqona g'azal keltirilgan, g'azal a-a, b-a, d-a,e-a, f-a shaklida qofiyalangan. G'azal matni:

Nozaninlar rasm aylang benavo biz sizlara,
Kecha-kunduz taammul dasti duo biz sizlara.
G'ayrg'a lutf-u karam birla muruvvat etsangiz,
Qo'ymangiz mahrumkim doim ado biz sizlara.
Oshnolik aylasangiz har kima bir muddao,
Ko'ngli ichra bormish bemuddao biz sizlara.
Har ne dermiz sizlarga ko'nglin rashk tobidin,
Kim parishon hol bo'lmang oshno biz sizlara.
Podshohi husn siz kuydursangiz g'am o'tig'a,
Oh etarmiz chora yo'q oxir gado biz sizlara.
Bizlara nodon g'ariz-u, bo'ldi dono xor-zor,
Ey qaro ko'zlar, bu ishlardin yano biz sizlara.
Qoshi yo mujgoni adaq bir jism andozsiz,
Noziliydek dofe' tersa balo biz sizlara².

Birinchi misrada: lirik qahramon o'ziga o'xshagan oshiqlar nomidan "Nozaninlar rasm aylang benavo biz sizlarga"-deydi.

Ikkinchi misrada: oshiqlar o'z ma'shuqasini kecha-kunduz "taammul" (chuqur o'ylash) bilan duoda yod etishini ta'kidlaydi.

Uchinchi misrada: oshiq va ma'shuq orasidagi "g'ayr" begonani eslab "G'ayrg'a lutf-u karam birla muruvvat etsangiz"-deydi.

To'rtinchi misrada: begonaga lutf-u karam qilib bizni muruvvatingizdan mahrum qilmang, zero "doim ado biz sizlarga"-deydi.



Beshinchi misrada: agar haqiqiy oshiqlardan o'zgani "Oshnolik aylasangiz" ularning bundan "bir muddao" maqsadi bo'ladi, vaholanki, oshiq ishqda maqsad bo'lmasligini uqtirmoqchi bo'ladi.

Oltinchi misrada: haqiqiy oshiqning ishq ko'ngli ichida bo'lishi va "bemuddao" (maqsadsiz) oshiq bo'lishini ta'kidlaydi.

Yettinchi misrada: haqiqiy oshiqlar har ne desa "ko'ngli rashk tobidin" (haroratidan) ekanligini ma'shuqaga aytadi.

Sakkizinchi misrada: oshiq ma'shuqasiga, so'zlarimizdan "parishon hol bo'lmang", "oshno biz sizlarga"-deydi.

To'qqizichi misrada: oshiq o'z ma'shuqasini husnini maqtab "Podshohi husn"-deb, o'zini faqat ma'shuqasi ya'ni "siz kuydursangiz g'am o'tig'a"-deydi.

O'ninchi misrada: agar ma'shuqa g'am o'tig'a oshiqni kuydursa, oshiq o'z holini quyidagicha izohlaydi: "Oh etarmiz chora yo'q oxir gado biz sizlarga".

O'n birinchi misrada: ma'shuqa oshiq haqida yomon gumonga borishini quyidagicha izohlaydi: "Bizlarga nodon g'ariz-u, bo'ldi dono xor-zor". Misrada tazod san'atidan (nodon-dono) unumli foydalanilgan.

O'n ikkinchi misrada: oshiq "ey qaro ko'zlar" deb ma'shuqani aytadi va o'zini xor-zor qilganiga qaramay "yano biz sizlarga"-deya oshiqqligini e'tirof etadi.

O'n uchinchi misrada: oshiq ma'shuqasining husnini ta'riflab "Qoshi yo mujgona adaq bir jism andozsiz"-deydi. Misrada **mubolag'a** (andozasiz, adaq) san'atidan unumli foydalangan.

O'n to'rtinchi misrada: shoir bunda o'z taxallusini eslatib "Noziliydek dofe' tersa" (ya'ni Noziliydek balolarni daf qilib, qutulmoqchi bo'lsa-da) ammo, yana ma'shuqa tomon borishini ta'kidlaydi. Yuqoridagi baytlardan bilishimiz mumkinki, Noziliy o'z asarida haqiqiy oshiq qanday bo'lishi, ma'shuqasi bilan munosabati, oshiq uchun bu yo'ldagi turli qiyinchilik va alamlarning uchrashini badiiy vositalar yordamida izohlab bergan deyishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Амиркулов С. Таҳавулли жанрҳои адабиёти тоҷик дар нимаи аввали асри XIX. — Душанбе: Нашриёти Деваштич, 2005. — В-126б.
2. Nozil Xo'jandiy devoni. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik ilmiy tadqiqot instituti Asosiy fondi inventar 12080/2.-В-116б
3. Алимулла Ҳабибуллаев. "Адабий манбашунослик ва матншунослик". Тошкент-2000. -В-134б